



NAZAR ESHONQULNING "MAYMUN YETAKLAGAN ODAM" HIKOYASINING BADIY TAHLILI

Otaboyeva Dilnoza

Urganch Ranch texnologiya universiteti o'qituvchisi

Azatova Sevinchoy Jur'atbek qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Nazar Eshonqul hikoyalarining o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Yozuvchining hikoyalarida istiqlol davri nasriga xos bo'lgan xususiyatlar, undagi shakliy va mazmuniy yangiliklar, hikoya janridagi o'zgarishlar atroflicha tahlil qilindi. Adibning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasidagi voqealıklar rivoji, kompozitsiya usuli, sujeti, ranglar tasviri haqida atroflicha fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Hikoya, janri, modern adabiyot, ramziy nutq, muallif nuqti, portret.*

Аннотация. *В данной статье описаны уникальные особенности рассказов Назара Эшангула. В рассказах писателя подробно проанализированы особенности, типичные для прозы периода независимости, формальные и содержательные новации в ней, изменения жанра рассказа. В рассказе писателя «Человек, ведомый обезьяной» подробно обсуждалось развитие событий, метод композиции, сюжет, изображение красок.*

Ключевые слова: *Рассказ, жанр, современная литература, символическая речь, авторский взгляд, портрет.*

Annotation. *This article describes the unique features of Nazar Eshanqul's stories. In the stories of the writer, the features typical of the prose of the*



independence period, the formal and substantive innovations in it, and the changes in the genre of the story were thoroughly analyzed. The writer's story "Man led by a monkey" was thoroughly discussed about the development of events, the method of composition, the plot, and the image of colors.

Key words: *Story, genre, modern literature, symbolic speech, author's point of view, portrait.*

XXI asr o'zbek modernistikasiga katta hissa qo'shgan serqirra ijodkorlardan biri Nazar Eshonqul hisoblanadi. Yozuvchi o'zbek adabiyotida qissa va hikoya janrida ijod qilgan, adib sifatida mashhurdir. Uning asarlari ko'pincha xalq hayotining turli jabhalarini, insonning ichki kurashlarini va jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni tasvirlaydi. Har bir ijodkor adabiyot olamiga qadam qo'yar ekan so'z san'atining murakkab qirralarini his qiladi. Adabiyotda o'z o'rnini qoldirishga intiladi. Yozuvchining adabiy falsafiy fikrlari, sirli, majoziy tasvirlari orqali hammadan ajralib turadi. Adabiyotshunos U.Normatov yozuvchi asarlari haqida shunday yozadi. "Milliy adabiyotdagi har bir ijobiy hodisaning sababini tashqi omildan emas avvalo shu milliy zamonning o'zidan real voqelikdan, zamona ehtiyojlaridan izlamoq darkor. Bu tamoyillar Nazar Eshonqul ijodida yaqqol namoyon bo'ladi. Muallifning "Maymun yetaklagan odam" va "Muolaja" asarlaridan tortib "Bevaqt chalingan bong", "Istilo" "Tobut" hikoyalarigacha barchasi ifoda va talqin yo'sini jihatidan o'zbek adabiyotida yangi hodisa bo'ladi".[1.6] Yozuvchi Nazar Eshonqulning hikoyalari va qissalarida obrazlar talqini va ularning qanday hayot kechirganliklari haqida, shu davrning ijtimoiy - iqtisodiy ahvolini, maqsadlari yo'lida turli to'siqlarga duch kelgani odamlar taqdirini tasvirlagan. Adibning modern uslubida yozilgan asarlaridan biri "Maymun yetaklagan odam" hikoyasidir. Ushbu hikoyaning sarlavhasi kishining ongida asarni o'qimasdanoq munozarali bahs uyg'otadi. Modern adabiyotning oziga xosligi ham shundadir. Yani kitobxonni o'ylashga ichki tahlilga undashidir.



Xo'sh nima uchun yozuvchi "Maymun yetaklagan odam" deb sarlavha tanlagan? Hikoyada odam maymunni yetaklaganmi? Yoki maymun odamni yetaklayaptimi degan savol har bir o'quvchining xayolida paydo bo'ladi. Asarning sarlavhasi tuzilishida muhim rol o'ynab, hikoyaning mazmuni o'ziga xos pafosda namoyon bo'lgan. Asarning bunday nomlanishiga sabab nima? Nima uchun bunday nomlangan. Xo'sh bunday savollarimizga javobni asarni o'qishimiz davomida bilib olishimiz mumkin. Asar syujeti sayyor syujeti bo'lib yozuvchi hikoyani mavjud qoliplar asosida emas mutlaqo yangicha talqin yangicha ruhda, o'ziga xos salohiyatda yozgan.

Asar shunday tasvir bilan boslanadi, -"Bu voqea uch yillar oldin bo'lgan edi. Shu ko'chadan bir uyni ijaraga olib ko'chib kelganimda cholning sharti ketib, parti qolgandi. U ko'chaning muyulishida men egallagan uyga qo'shni hovlida yashardi. Uni birinchi paytda uyining oldidagi eski o'rindiqlarda chuqur o'yga tolgan holda ko'rgan edim..."[2.7]

Parcha uch yil oldin sodir bo'lgan voqeani eslash bilan boshlanadi. Hikoyachi yangi uyga ko'chib kelganida qo'shni hovlida yashovchi chol haqida so'z yuritadi. Uning qarilik chog'iga yetib kelgani, hayotning og'ir sinovlarini boshdan kechirgani hayotdan umidini uzgan, hayot tashvishlari uni ezgilagani qayg'uli holda eski o'rindiqlarda chuqur o'yga tolganligi aniq tasvirlangan. Bu detal orqali cholning hayotida muhim voqealar bo'lganini sezishimiz mumkin. "U qaboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan ajinlar taram-taram qilib tashlangan, ko'rimsiz yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortar edi. Ko'zlari hissiz va ifodasiz, egnida ellikinchii yillarning andozasida tikilgan ancha salobat kitel, baqbaqasi osilib turgan holda o'ychan o'tirardi.[2.7]. Yozuvchi o'quvchilar xayolida ko'rimsiz bo'lgan, hayotning barcha tashvishlariga qo'l siltagan yuzi badjahl ma'budlar haykaliga o'xshab ketardi. Qahramonning ko'zlari hissiz va ifodasiz,



demak u ichki bo'shliq va hayotga bo'lgan befarqligini ifodalaydi. Qahramon hayotdan charchagan o'tmish xotiralari yoki afsuslari og'ushida yashayotgan insonning portretini gavdalantirishimiz mumkin. Uning o'tmish bilan bog'liq ehtimol, u oldin kuch -qudratga ega bo'lgan, lekin hozir o'zining zaif va holdan toygan holatini boshidan kechirgan kishi sifatida gavdalanadi. Nega aynan yozuvchi asarni Qo'rong'u tasvirlar bilan boshladi, nega yorug'lik emas asarni o'qiyotgan o'quvchining xayolida notiqlik va ko'plab savollar paydo bo'ladi. Bu savolga javobni asarni tahlil qilish jarayonida bilib olishimiz mumkin. "Ayvon uzun bo'lib suratlar chizilgan yillariga qarab ko'rgazmaga qo'yilgandek terib qo'yilgan to'g'rirog'i, bor - yo'g'i qirqqa yaqin suratlar va eskizlar 1957, 1947, 1937, 1928, 1926, va hokazo tartibda terib qo'yilgan edi. Suratlarni oralab borar ekanman, qandaydir zinalardan cholning umr tilsimoti yashiringan qo'rg'on tomon ko'tarilib borayotgandek his etdim o'zimni..."[2.8]. Bu parchada ayvondagi suratlarining yillar bo'yicha tartib bilan terilganligini ko'rishimiz mumkin. Ayvonning oxirida 1921 yilga oid suratni ko'rdim. Adib shu yildan boshlab rasm chiza boshlagan degan taxmin paydo bo'ladi. Bu suratda quyuq o'rmondan yigit maymunni yetaklab chiqayotgani tasvirlangan. Yigitning ko'zlaridagi ishonch va qatiyat uning qahramon yoki biror g'oya bilan harakat qilayotgan shaxs ekanligini ifoda etadi. Maymunning bo'yniga kishan solinganligi bo'lib bu erkinlik va qahramonlikning ramziy ifodasiga o'xshaydi. Suratda sodda, hatto uquvsizdek ko'ringani aytilsa - da, undagi ranglarning yorqin va tiniqligi suratga jon bag'ishlagan. Cholning keyingi yillardagi suratlarida yorqin ranglar o'rnini qora ranglar o'rab olgandi. Go'yoki qahraminning hayotida biror bir jiddiy voqea sodir bo'lganki, u suratlarda qora rangdan foydalana boshlagan. Rassom o'ttizinchi yillarda ko'plab ma'sul vazifalarda uzoq yillar xizmat qilgan. Uning xizmatlari el og'ziga yoyilgani, yonib kuyib mustabid tuzumga qarshi kurashgandi. Hikoyada chol do'stining hayoti orqali ko'rgan voqealardan so'ng u suratlarida qora rangdan foydalanganligini ko'ramiz. Chunki chol hayotda nima yaxshilik-u nima yomonlikini, ya'ni ikkalasini



ham barovar deb bilgan . "Yaxshilik ayni paytda kimlargadir, yomonlik yomonlik esa ayni paytda kimlargadir, yaxshilik bo'lib tuyuladi mening umrimda anglagan xulosam shu..."[2.11]. Rassomning suratlari tushunarsiz mavhum va vahimali biroq ular orqali rassomning ichki olami uning hayoti va do'stining jamiyatdagi odamlarga qilgan yaxshiliklari aks etgan. Cholning do'sti odamlarni o'ylab qonuni buzgan. Oxir oqibat uning yaxshiliklarini anglamay qabriga tosh otganliklarini ko'ramiz. Yangi rahbar kelganda eskisining unutilishi bu tuzumning qanchalar yozuv ekanligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham chol yaxshilik va yomonlikni bir xil ko'radi. Keyinchalik asarni hikoya qiluvchi bora-bora cholning suratlari hamda o'zi bilan ham qiziqmay qoladi. Chunki u Onettining hikoyalarini tarjima qilayotgan bo'ladi. "Bahor boshlarida hordiq oyidan qaytib uyga kirishim bilan uy bekasi ko'zida yosh bilan qarshi oldi va uch kun burun cholning qazo qilganini aytdi. Vujudimga sovuq shilimshiq narsa o'rmalaganday junjikib ketdim va birdan xayolimga cholning suratlari keldi. "Uy hali qarovsiz dedi menga uy bekasi, - o'g'lini hech qayerdan topisholmadi, yana qo'lga tushgan bo'lsa kerak..." [2.12]. Cholning o'limi uni qayg'uga soladi, lekin u xayolida cholning oxirgi suratni qanday chizganligi haqida o'ylardi. Ertasi kuni u cholning uyiga borib suratni qidira boshlaydi, uni topib qarasa surat 1921 yilda chizilgan surat bilan deyarli bir xil amma bu safar maymun cholni qorong'u va ko'rimsiz o'rmon sari yetaklayotgandi. Eng qizig'i bu safar cholning bo'ynida zanjir yo'q edi. Davr inson o'zgaradi ammo makon va maymun o'zgarmadi. Fikrimcha chol hayotning yomonliklariga taslim bo'lgan, o'zini hech kimga keraksiz his qiladigan hayotga o'zining yoshlikdagi qat'iyatini singdirolmagan chol qiyofasini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki ushbu hikoyada bir inson taqdiri misolida hayotning murakkab qiyofasi, inson umrining silsilasi haqqoniy tarzda yoritib berilgan. Bundan tashqari shuni e'tirof etish kerakki, Nazar Eshonqul hikoyalari tili o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unda asar qahramonlarining ijobiy



yoki salbiy qahramon ekanligi yozuvchi tilidan e'tirof etilmaydi. Aksincha, bu yumushni o'quvchining o'ziga qoldiradi, uni mushohadaga chorlaydi. Umuman olganda, asarda kimlar ulug'lanayotgani, qoralanayotgani ko'pincha bevosita emas, bivosita ifodalanadi. Majoziy, ko'chma ma'noli tasvirlar ta'rif-u tavsiflarga tez-tez murojaat etilib, ularning ustuvorligi ta'minlanadi. Eng muhimi, tasvirlardagi majozlar ko'chma ma'noli vositalar qahramonlarning betakror ruhiy dunyosini yoritishga xizmat qiladi. Hayotiznggizda qiyinchiliklar, to'siqlar fikrlaringizning o'zgarishiga, ishonchingizning yo'qolishiga sabab bo'lmasin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normatov. U. Umid baxsh tamoyillari. - T.: Ma'naviyat, 2000. 12-bet
2. Nazar Eshonqul "Maymun yetaklagan odam" Toshkent "Yangi asr avlodi"- 2004.
3. Nazar Eshonqul. Saylanma. Hikoyalar. Toshkent. "Akademnashr" 2022.
4. Sh. Sayfullayeva "Nazar Eshonqulning hikoyalari tahlili" "Maymun yetaklagan odam" misolida ilmiy maqola.